

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI**  
**(LOYIHA-SMETA HUJJATLARINI TAYYORLASH BO'YICHA)**

122/22-LS-408- sonli

Samarqand sh.

15 "moyabr 2022 yil

Bizlar "Samarcand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rinnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan 2022 yil 8-avgustdag'i 47-soni buyruq asosida ish yurituvchi direktor o'rinnbosari v.b K.Nimmatkulov bir tomonidan va "MEGATEK INJINIRING" mas'uliyati cheklangan jamiyatni nomidan Ustav asosida ish yurituvchi J.O'ktamov ikkinchi tomonidan "Samarcand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 11.11.2022 yildagi 22110012177634-soni bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

### 1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Samarcand shahar Temiryo'lehlar MFY dagi ichki ko'chalarini joriy ta'mirlash bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqish belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

### 2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 2 482 000 (ikki million to'rt yuz sakson ikki ming) so'mni tashkil qiladi. ✓

### 3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 30 (o'ttiz) foizi miqdorida avans to'lovinci amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqiche (yoki 1-ilovada ko'rsatilan ko'chalar) bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan dalolatnomalar asosida ajratilgan avans mablag') miqdori belgilangan foiz doirasisda ushlab qolinib amalga oshiradi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalar imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 10 (o'n) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovinci amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

### 4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shunindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlar ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektdan foydalananish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida vaqtida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnoma ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovinci amalga oshirish, ishlarning shartnoma ko'rsatilgan hajm va shartlarga muvofiq bajarilishi «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnoma ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalananish, «Bajaruvchi»ning roziligidisiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlarini o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytilridi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarini sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytdan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlari boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyatini yuklatiladi.

### 5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning tatabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlab chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan SHINQ va QMQ rivoja qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklarni yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlarni va xarajatlar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hoishi bilan yoki bosqaga uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidisiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, bareha ko'paygan to'lovlarini o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolarni uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'лади.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami ekspertiza uchun to'lovlarini amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldaqi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi

### 6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingen kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingen kundan boshlab 10 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi hamda elektron variantlari bilan «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandllarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqa belgilangan muddatlarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida bir-birini xabardor qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingen kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ko'rsatilgan ishlarni bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (bes) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnomada ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zaro hisob-kitob qilish vaqti hisoblanadi.

## 7. KONFIDENTIAL MA'LUMOTLARNI HIMoyalash

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «**Bajaruvchi**» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «**Buyurtmachi**»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldimi olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

## 8. YENGIB BO'LMAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan tabiy falokatlar natijasida kelib chiqsa va agar ushbu holatlар mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita tu'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarish muddati yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushbu holatlар ro'y berган vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

8.2. Agar yengib bo'lmaydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «**Buyurtmachi**» va «**Bajaruvchi**» ishlarni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qiladilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

## 9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rivoja qilish va ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarini buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmslik, shu jumladan noqonuniy to'lovlar taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklangan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ulaming vakillariga naqd yoki boshqa shaklda (lekin cheklangan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushbu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonlama va sudgacha bo'lgan tartibda ushbu shartnomani bajarishni rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

## 10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «**Bajaruvchi**» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «**Buyurtmachi**» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi va shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovnini amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «**Bajaruvchi**» mazkur shartnomada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «**Buyurtmachi**»ni xabardor qilmagan holda uchinchli shaxslarni, jumladan yuridik va jismoniy shaxslarni mustaqil ravishda jaib qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlarga va «**Bajaruvchi**»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlari nishbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan 5 (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Beglangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'rib chiqiladi.

10.7. «**Buyurtmachi**» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0.4 foizi miqdorida penya to'lanadi, bunda penyaning umumiyligi summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar bundan mustasno.

10.8. «**Bajaruvchi**» tomonidan bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «**Buyurtmachi**»ga muddati o'tkazib yuborilgan xar bir kun uchun bajarilmagan ishlar qiyomatining 0.4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiyligi summasi bajarilmagan ishlar qiyomatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ecktar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq belgilanadi.

10.10. To'hangan penya yoki jarimalar tomonlarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limga ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukuiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida uch nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega

## TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

### “BUYURTMACHI”

Nomi: “Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati”

**DUK**

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB “Ipoteka bank”

I/s: 30201860184017045201118092

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED:70220

Direktor o'rinnbosari v.b

K.Ximmatkulov

Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi “Xo'jalik yurituvchi sub'ecktar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida”gi Qonuning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matmi amaldagi qonunchilik talablariga rivoja qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertizasi qonundagi narxlarning shakllantirilishiga nisbatan radbiq etilmaydi.

  
Yurist G. Amirov

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010  
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi  
Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1  
STIR (INN)201122919 MFO 00014 OKED 97160  
Tel 2335853, 231-11-52

### “BAJARUVCHI”

Nomi: “MEGATEK INJINIRING” MCHJ

Manzili: Jizzax vil Jizzax sh Madaniyat MFY Paxtakor k 6-uy

Bank nomi: TIF “Milliy bank” Jizzax fili

X/R: 2020 8000 4049 3860 7001

MFO: 00121

STIR: 207130270

OKN: 66000

Tel: (99) 489-20-17: (99) 629-04-96



Direktor: MASULIYATI CHIKLANTAR J.O'ktamov

Yurist \_\_\_\_\_